

2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot^{*)}

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari
agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 33946 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,4 % ga o'sdi.



Jami ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %

Jami	28916	33946	117,4	100,0
-------------	--------------	--------------	--------------	--------------

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1997	2148	107,6	6,3
Sanoat	5864	7167	122,2	21,1
Qurilish	2543	2992	117,7	8,8
Savdo	7345	9185	125,1	27,1
Tashish va saqlash	1122	1265	112,7	3,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1368	1794	131,1	5,3
Axborot va aloqa	565	603	106,7	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	662	780	117,8	2,3
Boshqa turlari	7450	8012	107,5	23,6


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 30740 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3349 taga (12,2 %) o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 1-yanvar holatiga yillar kesimida soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (8059 ta yoki 26,2 %), sanoat (6551 ta yoki 21,3 %), qurilish (2747 ta yoki 9,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (1762 ta yoki 5,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1606 ta yoki 5,2 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa (495 ta yoki 1,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (744 ta yoki 2,4 %) hamda tashish va saqlashda (1179 ta yoki 3,9 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga 25940 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5092 ta, oilaviy korxonalar – 1451 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 18857 ta, unitar korxonalar – 186 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 37 ta, va boshqalar 317 tani tashkil etgan.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 6878 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.

Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi savdo hamda sanoat, qurilish va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasiga hamda eng kamlari esa axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


2018 y.




Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari jamiga nisbatan ulushi




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar, birlikda




Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda**
(2020-yil 1-yanvar holatiga)




**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2020-yil 1-yanvar holatiga)



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(2020-yil 1-yanvar holatiga)



Oilaviy korxonalar soni, birlikda
(1-yanvar holatiga)



**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(2020-yil 1-yanvar holatiga)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 20 384 tani tashkil etib, ulardan 18 857 tasi yoki 92,5 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4 282 taga yoki 26,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 5 223 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 431 taga ko'pdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.01.2020 yil		2019-yil yanvar-dekabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	20 384	18 857	5 223
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 302	1 125	227
Sanoat	5 106	4 787	1 360
Qurilish	2 339	2 215	559
Savdo	6 301	5 755	2 098
Tashish va saqlash	1 130	1 073	207
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 111	1 018	293
Axborot va aloqa	352	322	93
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	524	502	124
Boshqa turlari	2 219	2 060	262


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 25807 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8034 tasi (31,1 %) - savdo, 6497 tasi (25,2 %) - sanoat, 2742 tasi (10,6 %) - qurilish, 1729 tasi (6,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1163 tasi (4,5 %) - tashish va saqlash, 667 tasi (2,6 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 489 tasi (1,9 %) – axborot va aloqa sohasi hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdoda (2615 ta), sanoatda (1829 ta), qurilishda (589 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (273 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (106 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (137 ta) hamda tashish va saqlashda (214 ta) tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 299 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 77 taga yoki 34,7 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, %




2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 50,5 % yoki 49 tasi sanoat, 13,4 % yoki 13 tasi savdo, 12,4 % yoki 12 tasi qurilish, 8,2 % yoki 8 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,1 % yoki 4 tasi axborot va aloqa, 3,1 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 1 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda 7,3 % yoki 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 22 ta, Turkiya Respublikasi - 15 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 18 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 16 ta va Koreya Respublikasi - 6 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	65	32	33
Qirg'iziston Respublikasi	31	16	15
Qozog'iston Respublikasi	7	4	3
Belorus Respublikasi	5	0	5
Ukraina Respublikasi	3	0	3
Ozarbajjon Respublikasi	3	1	2
Tojikiston Respublikasi	1	0	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	0


Andijon viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi - 21,7 %, Qirg'iziston Respublikasi - 10,4 %, Qozog'iston Respublikasi - 2,3 % va Belorus Respublikasi - 1,7 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10804 ta), Asaka (2871 ta), Shahrixon (2151 ta), Andijon (1975 ta) va Qo'rg'ontepa (1528 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ulug'nor (519 ta), Xonobod shahri (607 ta) hamda Bo'ston (683 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (1973 ta), Asaka (629 ta), Shahrixon (526 ta), Andijon (485 ta), Oltinko'l (375 ta), Izboskan (374 ta), Qo'rg'ontepa (331 ta), Marhamat (317 ta), Baliqchi (299 ta) va Paxtaobod (298 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ulug'nor (114 ta), Xonobod shahri (188 ta), Bo'ston (216 ta), Buloqboshi (221 ta), Xo'jaobod (264 ta) hamda Jalaquduq (268 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Oilalar Soni*)	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.01.2019 yil	01.01.2020 yil
Andijon viloyati	792 250	22 692	25 940
Oltinko'l	49 201	1 137	1 117
Andijon	68 443	1 557	1 702
Baliqchi	52 241	1 135	1 135
Bo'ston	17 985	534	515
Buloqboshi	35 040	537	651
Jalolquduq	45 701	794	797
Izboskan	58 964	934	1 058
Ulug'nor	15 583	421	372
Qo'rg'ontepa	54 166	994	1 197
Asaka	82 576	2 190	2 486
Marhamat	44 284	1 013	1 021
Shahrixon	76 354	1 442	1 790
Paxtaobod	52 754	699	923
Xo'jaobod	25 803	750	921
Andijon sh.	102 609	8 205	9 741
Xonobod sh.	10 546	350	514

*) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 25807 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 14,4 % ga oshgan.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona
va mikrofirmalar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxona	Mikrofirmalar
Andijon viloyati	25 807	1 408	24 399
Oltinko'l	1 113	70	1 043
Andijon	1 694	119	1 575
Baliqchi	1 131	49	1 082
Bo'ston	512	17	495
Buloqboshi	649	40	609
Jalolquduq	793	43	750
Izboskan	1 053	51	1 002
Ulug'nor	367	7	360
Qo'rg'ontepa	1 192	56	1 136
Asaka	2 475	115	2 360
Marhamat	1 018	43	975
Shahrixon	1 786	96	1 690
Paxtaobod	919	50	869
Xo'jaobod	918	60	858
Andijon sh.	9 678	563	9 115
Xonobod sh.	509	29	480

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9678 tasi (37,5 %) Andijon shahri, 2475 tasi (9,6 %) Asaka, 1786 tasi (6,9 %) Shahrixon hamda 1694 tasi (6,5 %) Andijon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi Andijon shahri (1895 ta), Asaka (614 ta), Shahrixon (510 ta), Andijon (475 ta), Izboskan (365 ta), Oltinko'l (359 ta), Qo'rg'ontepa (318 ta), Marhamat (306 ta) va Paxtaobod (292 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Ulug'nor (107 ta), Xonobod shahri (186 ta), Bo'ston (206 ta), Buloqboshi (209 ta), Xo'jaobod (246 ta), Jalolquduq (259 ta) hamda Baliqchi (285 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 1 511 tani tashkil etib, ulardan 1 451 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 2,6 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda


	01.01.2020 y.		2019 yil yanvar-dekabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Andijon viloyati	1 511	1 451	963
Oltinko'l	127	116	73
Andijon	168	161	123
Baliqchi	24	22	11
Bo'ston	96	89	80
Buloqboshi	55	53	51
Jalolquduq	3	3	1
Izboskan	53	48	19
Ulug'nor	34	33	15
Qo'rg'ontepa	42	37	28
Asaka	271	271	177
Marhamat	25	21	7
Shahrixon	117	106	46
Paxtaobod	12	12	7
Xo'jaobod	5	5	2
Andijon sh.	451	446	301
Xonobod sh.	28	28	22

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning soni 963 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 martaga ko'paygan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Andijon viloyati	299	160	139
Oltinko'l	16	12	4
Andijon	26	19	7
Baliqchi	9	3	6
Bo'ston	8	5	3
Buloqboshi	12	6	6
Jalolquduq	7	3	4
Izboskan	7	4	3
Ulug'nor	5	3	2
Qo'rg'ontepa	8	6	2
Asaka	16	10	6
Marhamat	11	5	6
Shahrixon	22	8	14
Paxtaobod	7	3	4
Xo'jaobod	14	9	5
Andijon sh.	117	55	62
Xonobod sh.	14	9	5

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

Tel.:74-228-29-74